

**ABDULLA ORIPOV IJODI VA O'ZBEK ADABIYOTI
MASALALARI**

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi I-bosqich talabasi

Ismoilova Bahora Eshdavlat qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Oripovning ijodi va o'zbek adabiyotidagi o'rnini tahlil qilindi. Unda shoirning poetik maktabi va uning zamonaviy o'zbek adabiyotiga ta'siri kabi masalalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, adibning O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi sifatidagi roli hamda tarjimonlik faoliyatiga qo'shgan hissasi, jumladan, Dantening "Ilohiy komediya" asarining tarjima qilinishi va adabiyotimizdagi qator yutuqlari bayon qilindi.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Oripov, o'zbek adabiyoti, poetik tafakkur, tarjimonlik, jahon adabiyoti, davlat madhiyasi, mustaqillik.*

O'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri, O'zbekiston Qahramoni unvoni sohibi, O'zbekiston xalq shoiri, tarjimoni hamda jamoat arbobi Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyatida chuqur iz qoldirdi. Adibning talabalik yillarida yozilgan "Tilla baliqcha", "Men nechun sevaman O'zbekistonni" singari ilk she'rlari adabiyotimizga yangi iste'dod kirib kelayotganligidan darak berdi.

Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga XX asrning 60- yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan ilk shabbodalar elchisi sifatida namoyon bo'ldi. U dastlabki she'rlaridanoq milliy she'riyatimizda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo'lida ijod qildi. Oripovning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o'z o'rnini falsafiy mushohadalarga bo'shatib, shoirning hayotda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu o'rinda «Tilla baliqcha», «Qo'riqxon», «Genetika», «Olomonga» kabi she'rlar Oripovning lirik she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi. Xuddi shu



narsa Oripovning doston janrida ham ijod qilishi va liro-epik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga sababchi bo'ldi. Abdulla Oripov «Jannatga yo'l» (1978), «Hakim va ajal» (1980), «Ranjkom» (1988) kabi dostonlarida ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berib, kishilarning ruhiy olamidagi ayrim qusurlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot va tafakkurning parvozi o'rtasidagi ziddiyatni yoritib berdi.

Barchamizga ma'lumki, Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi muallifidir. Adib madhiyamizda xalqimizning ezgu orzu-umidlari hamda kelajakka mustahkam ishonchini teran ifodalagan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ularni tarannum etgan.

Abdulla Oripov nafaqat iste'dodli shoir, balki, tarjimon ham edi. U jahon adabiyotining taniqli vakillaridan bo'lgan adiblarning, jumladan, Dantening " Ilohiy komediya " asari "Do'zax" qismini, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, T.G.Shevchenko, L.Ukrainka, R.Hamzatov, Q.Quliyev hamda M.Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilgan. Ushbu tarjimalari orqali jahon adabiyoti namunalari bilan birgalikda ularning madaniyati, dunyoqarashini ham adabiyotimizga olib kiradi. Shu o'rinda aytish joizki, shoirning o'z asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbayjon singari qator xorijiy tillarga tarjima qilingan.

U mustaqillik yillarida adabiyotning rang-barang tur va janrlarida ijod eta boshladi. Shu davrda tarixiy adolatning tiklanishi, o'tmishda yashagan sarkardalar va allomalar xotirasining e'zozlanishi A.Oripovni Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixiy taqdirida o'ynagan buyuk rolini ko'rsatuvchi «Sohibqiron» (1998) she'riy dramasini yozishiga turtki bo'ldi. Xalq shoiri bu asarida qariyb uch asr davomida hukm surgan qudratli Temuriylar saltanatining asoschisi va XV asr Sharq Uyg'onish davrining boshlanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoit yaratgan Amir Temur obrazini gavdalantirdi.

Adibning o'tgan asrning 70-yillaridan keyin yozgan asarlarida hayot va inson, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarning tobora chuqurlashib borganligini sezish mumkin. Kuchli ehtirosli tuyg'ular ularda o'zining yuksak talqinini topadi. Bu bora bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning asosiga aylanib,



shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi. Adibning "Saylanma" to'plami esa buning yaqqol isbotidir.

Ardoqli shoirimiz Abdulla Oripov o'z asarlarida Vatanni chuqur va samimiy tarannum etishi bilan ham tanilgan. Uning she'rlarida O'zbekistonning go'zalligi, tarixi va madaniyatiga havas bilan to'lib-toshgan va u ko'pincha o'z xalqining matonati va ruhini nishonlaydi. Oripovning Vatanga bo'lgan muhabbati uning yurt va uning xalqining mohiyatini chuqur va hissiyot bilan qamrab olgan lirik va hayajonli tilida namoyon bo'ladi.

Shoirning vatan madhi jo'sh urgan she'rlaridan biri "O'zbekiston" qasidasidir:

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirilar bor, o'z yurtin butun —

Olam aro atagan tanho.

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,

Qanotida kumush diyori,

Bir o'lka bor dunyoda, biroq

Bitilmagan dostonidir bori:

Faqat ojiz qalamim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek she'riyatining "Navoiy"si bo'lgan taniqli shoir Abdulla Oripov adabiyotimizda o'z asarlari va tarjimonlik faoliyatidagi tengsiz ijod namunalari ila o'chmas iz qoldirdi. Uning she'rlari sodda, ravon, haqchil. Bir o'qishdayoq quyma satrlar qalblarga singib ketadi. Yozuvchi tabiatni sevadi, ardoqlaydi. O'quvchini ham tabiatni sevishga chorlaydi. Kundalik hayotimizda ko'rib turadigan oddiy holatlarni she'rga shunday mahorat bilan joylaydiki, bir o'qishdayoq ko'z o'ngizimizda tanish holat gavdalanadi. Bu har bir insonga o'zgacha zavq bag'ishlaydi, xotiralarni uyg'otadi. Adibning ijodiy asarlari hozirgi kunda ham o'z o'rnini yo'qotmagan va barchamiz uchun bebaho xazina bo'lib qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilmlar.uz- Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she'rlari, asarlari haqida
<https://ilmlar.uz/abdulla-oripov-hayoti-va-ijodi-shearlari-asarlari-haqida/>
2. innovativepublication.uz- Abdulla Oripov ijodida vatan madhi
<https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/674>
3. Kun.uz- Marhum shoir Abdulla Oripov hayoti va ijodi
<https://m.kun.uz/news/2016/11/05/marum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F05%2Fmarum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi>
4. uz.wikipedia.org- Abdulla Oripovning tarjimai holi, she'riy to'plamlari va adabiyotdagi o'rni haqida umumiy malumotlar
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov
5. Tafakkur.net- Abdulla Oripovning tarjimai holi, adabiyotdagi o'rni va ijodiy yutuqlari
<https://tafakkur.net/abdulla-oripov.haqida>
6. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot 9-sinf darslik. Toshkent "O'zbekiston" NMIU 2019. 209-211 betlar